

## BUXORO AMIRLIGIDA KARVONSAROYLARNING AHAMYATI

Xakimov Jahongir Nematjon o'g'li  
(Toshkent kimyo-texnologiya instituti  
Shahrisabz filiali assistent o'qituvchisi)

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada Buxoro amirligida mavjud bo'lgan karvonsaroylarni rahamiyati, ularning soni, unsda nima ishlar qilingani haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, Rossiya, karvansaroy, indigo, Demizon.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston "Buyuk ipak yo'li" ning markazida joylashgan ayniqsa, Buxoro va Samarqand alohida o'rin tutgan. Bu shaharlar nafaqat o'tmishda hozirgi kunda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki bizning o'lkamizda savdo-sotiq, hunarmandchilik, elchilarning dam olish uchun sharoitlar yaratilganligi hamda savdogarlarning mahsulotini sotib olishi va ularning tunashi uchun joylar tashkil etilgan. Buni XVIII asrda tashkil topgan Buxor amirligi misolida ham ko'rib o'tamiz. Buxor amirligi aholisi ko'p millatli bo'lgani uchun, bu yerda turli davlatlardan elchi, savdogar, sayohatchilar va boshqalar ko'p kelishgan. Ularning barchasi uchun sharoitlar yaratilgan. Bunga Buxorodagi karvansaroylarning roli va ahamiyati muhim rol o'ynaydi. Buxoro karvonsaroylarida turli millat vakillari savdo qilishgan ularning ichida hind, afg'on, eroniylar, forslar va boshqa millat vakillari mahalliy aholi bilan savdo qilishgan. Bu esa karvonsaroylarda ham amalga oshirgan.

Buxoroda savdo-sotiqning rivojlanishi uchun karvonsaroylar muhim o'rin tutgan. Karvonsaroylarning aksariyati XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida barpo etilgan. XIX asr boshlarida Buxoroda Negri missiyasi davrida 10 ta karvonsaroy ishlagan, bular Abdullaxon, Qo'shbegi, Hind, No'g'ay, Xo'ja Jo'ybori, Toshkent, Qarshi, Mirog'ul, Kullota va boshqalar bo'lgan. A. Borns esa, 20 ta karvonsaroy borligini ta'kidlaydi.<sup>1</sup>

Savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalarning rivojlanib borishi bilan karvonsaroylar soni ham oshib borgan. Buni mintaqadagi ayrim shaharlar, masalan, Buxoro xonligining markaziy shahri hamda Qarshi, Shahrisabz va boshqa shaharlari misolida ham ko'rish mumkin. Agar XIX asr boshlarida Buxoroda 14 ta karvonsaroy bo'lgan bo'lsa, shu asrning 60-yillarida ular soni 36 taga yetadi. XIX

<sup>1</sup> Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару...М.:Наука. -С.129.



asrning 40-yillari boshida Qarshida 3 ta, A.Vamberi bu shaharga kelgan 1863-yilda 10 ta karvonsaroy bo'lgan. XIX asrning 60-yillarida Shahrisabzda 7 ta, Kitobda 3 ta karvonsaroy bo'lgan bo'lsa, XX asr boshida Shahrisabzdagi karvonsaroylar soni 28 taga, Kitobda esa 6 taga yetgan. XIX asrda Qo'qonda 6 ta yirik bozor va karvonsaroy mavjud bo'lib, ularning 4 tasi qo'shni davlatlardan karvonsaroylar soni savdo-sotiq rivojiga mos bo'lgani va karvonsaroylarning savdo-sotiq bilan bog'liq funksiyalari haqida xulosalar chiqarishga imkon beradi.<sup>2</sup> Xorijlik mualliflarning Buxoro karvonsaroylari soni to'g'risida bergan ma'lumotlari ham qiziqarlidir. Meyendorf ularning soni 14 ta bo'lganligi, shulardan bittasi Hindiston nomi bilan atalganligini yozadi. A.Byorns esa 20 ta karvonsaroy mavjud deb qayd etsa, P. Demizon 25 ta karvonsaroy borligini aytgan.<sup>3</sup>

Mintaqa shaharlaridagi karvonsaroylar, odatda, ularni barpo ettirgan shahs nomi bilan atalgani yoki ulardan doimiy foydalanuvchi savdogarlarning qaysi etnik guruhga, shaharga yoki mamlakat vakili ekanligiga qarab nomlangani ham e'tiborga loyiq xususiyatlardan biri edi. Yirik shaharlardagi karvonsaroylar, nafaqat, savdogarlarning vaqtincha yashaydigan joyi, balki savdo-sotiq (ulgurji savdo) ishlari olib boriladigan, kerakli soliqlar yig'ib olinadigan joy vazifasini ham bajargan. Ba'zi hollarda ularda mayda hunarmandchilik ustaxonalari ham bo'lgan. Karvonsaroylar bu keng ko'lamli faoliyati sababli katta daromad manbai bo'lgan.<sup>4</sup> Karvonsaroylardagi hujralarda ko'p hollarda 10 tadan 15 tagacha yo'lovchi yashagan. Karvonsaroylardagi ijara haqiga oid ma'lumotlar manbalarda kam uchraydi. O'rta asrlarga oid ayrim ma'lumotlar esa bu muammo haqida faqat umumiy xulosa chiqarishga imkon beradi. Masalan, XIX asr boshlarida Buxorodagi karvonsaroylarda bir xonaning bir oylik ijara haqi 16 rublni tashkil qilgan.<sup>5</sup> Shu tariqa, karvonsaroylar nafaqat savdo yo'llari bo'yida, savdo markazlari hisoblangan shaharlarda, yirik qishloqlar va qo'rg'onlarda ham ko'plab barpo etilgan. O'zbekiston va qo'shni respublikalar hududida joylashgan va bizning davrimizgacha saqlanib qolgan yo'lbo'yi karvonsaroylari va rabotlari, o'rta asrlar davriga oid bo'lib, ular, odatda, savdo karvonlari bir kunda bosib o'tadigan masofada, bir-biridan 5-6 farsax uzoqlikda qurilgan.

<sup>2</sup> А.Сагдуллаев Ў Мавлонов. Д.Махкамова. Ўрта Осиёда ўрта асрлар савдо-сотик тизими. Академия Тошкент. 2002. -В. 82.

<sup>3</sup> Записки о Бухарском ханстве Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича... - С.58 – 59

<sup>4</sup> А.Сагдуллаев Ў Мавлонов. Д.Махкамова. Ўрта Осиёда ўрта асрлар савдо-сотик тизими. Академия Тошкент. 2002. -В. 83.

<sup>5</sup> А.Сагдуллаев Ў Мавлонов. Д.Махкамова. Ўрта Осиёда ўрта асрлар савдо-сотик тизими. Академия Тошкент. 2002. -В. 84.



Eversman Meyendorf kabi Buxoroni Osiyo tranzit savdosining muhim markazi sifatidagi ahamiyatini ta'kidlab o'tadi. U ham Meyendorf kabi Buxoro shahrida mavjud bo'lgan karvonsaroylar xususida fikr bildirgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Buxoro karvonsaroylarida turli etnik millat vakillari turishgani va ularning savdo-sotiqqa hissa qo'shishgan. Ularning bir hududda yashaganligi o'zaro munosabatlariga ta'sir etmasdan qolmagan. Ular hamjihatlikda ish bolib borganligi nafaqat Buxoroda balki, butun amirlikda turli millat vakillari uzoq vaqt yashaganligidan dalolat beradi. Masalan: hind karvonsaroyida hindlar, xitoy karvonsaroyida qo'qonlik va qashg'arlik savdogarlar, tatar karvonsaroyida tatarlar yashaganligi haqida ma'lumot bergan. Bu asarlar XIX asr boshlaridagi ilmiy tadqiqot ishlariga asos bo'ldi.

Shunday karvonsaroylarda afg'onlar alohida istiqomat qilganligi e'tiborga loyiq. Masalan, Mirzacho'l saroyi afg'onlar, hindlar va marvlik savdogarlari bilan band etilgan. Baxriddin saroyiga asosan, Qobul, Peshovar va Kashmirdan mahsulotlar keltirilgan. Abdullaxon saroyida ham log'an qabilasidan bo'lgan afg'on savdogarlari istiqomat qilgan. Ayaz saroyini ham tatarlar qatorida afg'on ishchilari bo'lgan.

Xulosa. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Buxoroda yashagan har bir millatga barcha sharoitlarni yaratilganini ko'ramiz. Ular qaysi soha bilan shug'ullanmasin ularga kerak bo'lgan narsalar nuhayyo qilingan. Ayniqsa savdo sotiq masalasida o'z yurtida yurgandik his qilgan. Shuningdek, amirlikning savdosiga vositchilik ham qilishgan. Sharq milliy guruhlari savdo-sotiq sohasida amirlikda o'z o'rniga ega ekanligiga amin bo'ldim. Bu bilan ular savdoning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. A. Sagdullayev O' Mavlonov. D.Mahkamova. O'rta Osiyoda o'rta asrlar savdo-sotiq tizimi. Akademiya Toshkent. 2002.
2. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару...М.:Наука.
3. Записки о Бухарском ханстве Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича.

